
TOSHLOQDA “YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASI DOIRASIDA “DOLZARB 40 KUNLIK” BOSHLANDI

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida tuman hokimligi, mehnat faxriylari, mahalla faollari, hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari hamda tuman obodonlashtirish bo‘limi xodimlari tomonidan dolzarb 40 kunlik boshlab yuborildi. Bugun ular ishtirokida manzarali va mevali daraxt ko‘chatlar ekish ishlari olib borildi.

Tuman hokimi Abduqaxxor Djurabayev hamda sektor rahbarlari tumandagi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida bo‘lishib, ko‘chat ekish tadbirlarida qatnashdilar. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida tuman hududida mevali va manzarali daraxtlar, shuningdek tez o‘sovchi va boshqa ko‘chatlar ekilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, tuman markazlarida mevali, yong‘oq manzarali va daraxtlar buta ko‘chatlari ekish ishlari uyushqoqlik bilan olib boriladi.

2022-10-21 15:42:34